

IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA INNOVATSION MENEJMENTNI O'RNI

Ismailov Dilshod Anvarjonovich

TDIU, dotsenti

ORCID: 0000-0001-7199-3773

Akramova Aziza Abduvohidovna

TDIU, talabasi

ORCID: 0009-0006-9345-5507

Annotatsiya

Iqtisodiy tizimlarning zamonaviy bosqichda yuqori o'zgaruvchanlik va murakkablik sharoitida faoliyat yuritishi innovatsion yondashuvlarni boshqaruv amaliyotiga chuqur integratsiya qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu munosabat bilan, ushbu tadqiqotda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash jarayonida innovatsion menejmentning tizimli va institutsional o'rni keng ko'lamda tahlil etiladi. Asosiy e'tibor innovatsion menejmentning strategik rejalashtirish, raqamli transformatsiya, ilmiy-texnik salohiyatni safarbar qilish hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning adaptiv raqobatbardoshligini oshirishdagi funksional imkoniyatlariga qaratiladi.

Kalit so'zlar: Innovatsion menejment, iqtisodiy barqarorlik, raqamli transformatsiya, innovatsion strategiya, raqobatbardoshlik, bilimga asoslangan iqtisodiyot, texnologik rivojlanish, adaptiv boshqaruv.

Аннотация

Тот факт, что на современном этапе экономические системы функционируют в условиях высокой волатильности и сложности, обуславливает необходимость глубокой интеграции инновационных подходов в практику управления. В этой связи в настоящем исследовании комплексно анализируется системная и институциональная роль управления инновациями в обеспечении экономической стабильности. Основное внимание уделено функциональным возможностям управления инновациями в стратегическом планировании, цифровой трансформации, мобилизации научно-технического потенциала, повышении адаптивной конкурентоспособности субъектов хозяйствования.

Ключевые слова: Управление инновациями, экономическая устойчивость, цифровая трансформация, инновационная стратегия, конкурентоспособность, экономика, основанная на знаниях, технологическое развитие, адаптивное управление.

Abstract

At the modern stage of economic development, the high volatility and complexity of economic systems necessitate the deep integration of innovative approaches into management practices. This study provides a comprehensive analysis of the systemic and institutional role of innovation management in ensuring economic stability. Particular attention is given to the strategic planning functions of innovation management, digital transformation, mobilization of scientific and technical potential, and enhancing the adaptive competitiveness of economic entities.

Keywords: Innovation management, economic sustainability, digital transformation, innovation strategy, competitiveness, knowledge-based economy, technological development, adaptive management.

KIRISH

Global iqtisodiy rivojlanish jarayonlarining o‘ziga xos xususiyati bu — o‘zgarishlar tezligi, texnologik yangilanishlar sur‘ati va raqobat muhitining keskinlashuvi bilan bog‘liq. Bunday sharoitda iqtisodiy barqarorlikni saqlab qolish va mustahkamlash nafaqat resurslarga asoslangan an‘anaviy modelni takomillashtirishni, balki innovatsion menejment konsepsiyasini chuqur integratsiya etishni ham taqozo etadi. Innovatsion menejment — bu nafaqat yangi mahsulot va xizmatlarni yaratish, balki iqtisodiy subyektlarning ichki strukturalarini zamon talabiga moslashtirish, resurslardan samarali foydalanish va barqaror strategik ustunlikni ta‘minlash vositasidir.

Jahon iqtisodiyoti raqamli texnologiyalar, sun‘iy intellekt, avtomatlashtirilgan tizimlar, ekologik innovatsiyalar kabi ilg‘or yo‘nalishlar asosida yangi bosqichga o‘tmoqda. Ushbu transformatsion jarayonlarda muvaffaqiyat qozonayotgan mamlakatlar va kompaniyalar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, innovatsion menejment vositalaridan oqilona foydalanish iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Shu bilan birga, ushbu yondashuv resurslarning cheklanganligi, ekologik barqarorlik, inson kapitalining sifati kabi muammolarga ham samarali yechimlar topish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi ham so‘nggi yillarda innovatsion rivojlanishni iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab, “raqamli transformatsiya”, “yashil iqtisodiyot”, “innovatsion rivojlanish strategiyasi” kabi dasturlar orqali yangi boshqaruv yondashuvlarini joriy etmoqda. Davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik, startaplar ekotizimining rivojlanishi, innovatsion infratuzilmaning kengaytirilishi — bularning barchasi innovatsion menejment tamoyillarining amaliyotga jadal kirib kelayotganini ko‘rsatadi. Biroq bu jarayonlar hali to‘laqonli tizimlashmagan bo‘lib, ularni chuqur ilmiy tahlil qilish, zamonaviy xalqaro tajribalar bilan taqqoslash va milliy sharoitlarga moslashtirilgan boshqaruv modellarini ishlab chiqish dolzarb vazifadir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsion faoliyat va barqaror iqtisodiy rivojlanishga asos solgan klassik iqtisodchilar qatorida J.A. Schumpeter 1934-yilda innovatsiyani iqtisodiy rivojlanishning endogen omili sifatida talqin etadi. Unga ko‘ra, “ijodiy buzilish” orqali yangi texnologiyalar, mahsulotlar va jarayonlar eskilarini siqib chiqaradi, natijada iqtisodiyotda strukturaviy o‘zgarishlar yuz beradi. Bu o‘zgarishlar esa barqaror o‘shish va raqobatbardoshlikni ta‘minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

B.A. Lundvall 1992-yilda esa innovatsion faoliyatni milliy innovatsion tizimlar doirasida ko‘rib chiqib, interaktiv o‘rganish va tarmoqli aloqalar orqali innovatsiyalarni shakllantirish jarayonini izohlaydi. Uning yondashuvi innovatsion

menejmentning institutsional va ijtimoiy o‘lchovlarini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Shuningdek, Freeman va Soete 1997-yilda ishlab chiqqan modelda sanoat innovatsiyalarining iqtisodiy sikllar va texnologik paradigmalarga qanday ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilinadi. Ular innovatsion siyosat va texnologik rivojlanish o‘rtasidagi tugal integratsiyani iqtisodiy barqarorlik sharti sifatida ko‘rsatadi.

R.A. Fatxutdinov 2007-yilda innovatsion menejmentni tizimli, institutsional va iqtisodiy qonuniyatlar asosida tahlil qilib, innovatsion tashkilotlarning tuzilmasi, strategik maqsadlari va boshqaruv tamoyillariga urg‘u beradi. Uning ta’kidlashicha, innovatsion menejment samaradorligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri resurslarni qayta taqsimlash, tashkiliy moslashuvchanlik va bozor talablariga tezkor javob qaytarish qobiliyatiga bog‘liq.

METODOLOGIYA

Innovatsion jarayon (IJ) davriy xarakterga ega. IJni ifodalovchi faoliyat inson mehnatining taqsimlanishi natijasida ajralib chiqqan, bir-biridan farqlanuvchi alohida vazifaviy, tashkiliy birliklarga bo‘linadi. IJning iqtisodiy va texnologik ta’siri faqat yangi mahsulotlar yoki texnologiyalarda qisman ro‘yobga chiqadi. U ancha ko‘proq yangi texnikaning vujudga kelishining shart-sharoiti sifatida iqtisodiy va ilmiy-texnik salohiyatning ko‘payishida namoyon bo‘ladi, ya’ni innovatsion tizim va uning tarkibiy elementlarining texnologik darajasi oshadi, shuning bilan innovatsiyalarga moyillik ham ortadi.

Nazorat masalasi innovatsion menejmentning korxonada ishi natijalarini miqdoriy va sifat jihatdan baholash bilan bog‘liq muhim vazifasidir. U teskari aloqaga ega tizimdan iborat bo‘lib, uning maqsadi tashkilot tomonidan qo‘yilgan maqsadlarga erishishni ta’minlashdan iborat. Nazorat – bu standartlar va solishtirish bazasini belgilash, tizimga kirishlarni tadqiq qilish, natijalarni me’yoriy baza bilan solishtirishni tashkil qilish, chetga chiqishlar va ularni yo‘l qo‘yiladigan darajasini belgilash hamda natijalarni yakuniy o‘lchash bo‘yicha turli-tuman tadbirlar tizimidir.

1-jadval


Iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda innovatsion menejmentning o‘rni bo‘yicha tadqiqot metodlari¹

Usul	Tavsif	Tadqiqotda qo‘llanishi
Tizimli yondashuv	Innovatsion menejment va iqtisodiy barqarorlik o‘rtasidagi turli elementlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tahlil qilishga yo‘naltirilgan.	Innovatsion menejmentning iqtisodiy barqarorlikka ta’sirini makroiqtisodiy, texnologik va ijtimoiy darajada tahlil qilishda ishlatiladi.
Komparativ tahlil	Turli mamlakatlar innovatsion menejment tizimlarini taqqoslash orqali ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash.	O‘zbekistonni Germaniya, Janubiy Koreya va Singapur kabi rivojlangan mamlakatlar bilan taqqoslash orqali uning innovatsion siyosatlarini o‘rganish.

¹ Muallif ishlanmasi

Usul	Tavsif	Tadqiqotda qo‘llanishi
Empirik va statistik tahlil	Haqiqiy ma’lumotlarni yig‘ish va ularni tahlil qilish, innovatsion menejment va iqtisodiy barqarorlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash.	O‘zbekistonning davlat statistika organlari va xalqaro tashkilotlaridan olingan ma’lumotlar asosida innovatsion menejmentning iqtisodiy barqarorlikka ta’siri o‘rganiladi.
Kontent-tahlil	Siyosat hujjatlari, qonunlar va strategik dasturlarni tahlil qilish orqali innovatsion menejmentdagi asosiy tendensiyalarni aniqlash.	O‘zbekistonning “Raqamli O‘zbekiston – 2030” va “Yashil iqtisodiyot strategiyasi” kabi hujjatlarini o‘rganish orqali innovatsion boshqaruvning rivojlanishini baholash.

Jadvalda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda innovatsion menejmentning o‘rni va bu yo‘nalishda qo‘llaniladigan asosiy tadqiqot metodlari yoritilgan. Har bir metod innovatsion siyosatning turli jihatlarini o‘rganish, tahlil qilish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu metodlar kompleks qo‘llanilganda, innovatsion boshqaruv tizimining iqtisodiy barqarorlikka ta’sirini chuqur va har tomonlama tahlil qilish imkonini beradi.



1-rasm. Innovatsion menejmentdagi rejalashtirish jarayoni¹

¹ Muallif ishlanmasi

Innovatsion menejmentning ustuvor maqsadlari — innovatsion faoliyatni faollashtirish asosida tashkilotning oʻsishi va rivojlanishi, yangi tovarlar va yangi texnologiyalarni bozor tomoniga faol harakatlantirish, iqtisodiy taraqqiy etish va yangi bozorlarga bostirib kirish, faol oʻsish uchun ishlab chiqarishni yanada ixtisoslashtirish va har tomonlama rivojlantirish imkoniyatlaridan foydalanishdan iboratdir. Mazmunining koʻrinishlari ancha oʻzgaradi: tahlil va bashorat, modellashtirishning miqdoriy usullari, taʼsir qilishning sotsial-psixologik turlariga, anʼanaviy menejmentga qaraganda koʻproq oʻrin beriladi, iqtisodiy yondashishlarning mazmuni boyitiladi, maʼmuriy dastaklarni qoʻllash imkoniyatlari torayadi.

Yangilikni ishlab chiqishdagi nazoratni takomillashtirish quyidagi bir qator shartlarni ilgari suradi:

- Nazoratning tashkiliy tuzilmalarining mavjudligi;
- Ijroiya idoralari va xizmatlarini shakllantirish;
- Xodimlarni maxsus tayyorlash;
- Tahlil usullari va nazorat shakllarini ishlab chiqish;
- Meʼyoriy, metodologik va axborot bazasini kengaytirish.

Zamonaviy innovatsion firma ham innovatsion jarayonlarning koʻp variantlilik va kichikroq determinatsiyalanganligi (yaʼni asoslanganligi) oqibatida vujudga keluvchi tashkiliy tuzilmalarning turli-tumanligi bilan taʼriflanadi. Innovatsion firmani tashkiliy loyihalashtirish tashkiliy-boshqaruv tuzilmalari va ishlab chiqarish apparatining yangiliklarni tatbiq qilish, oʻzlashtirish va diffuziyasi oʻrtasidagi oʻzaro aloqaga bogʻliq.

Innovatsion faoliyatni kuchaytirish uchun firmalar-aro kooperatsiyaning boshqa turlari, har xil ilmiy-sanoat majmualari hamda moliya-sanoat guruhlarining koʻpgina turlaridan ham foydalaniladi. Bu tuzilmalarning eng muhim vazifalari — xoʻjalik aloqalarini barqarorlashtirish va ichki raqobat muhitini shakllantirish asosida ishlab chiqarish jarayonlarini tartibga solish, ishlab chiqarishning pasayishiga qarshilik koʻrsatish kuchini oshirishdan iboratdir. Iqtisodiyot rivojlanishida xoʻjalik yurituvchi subyektlarning miqdoriy va sifat jihatidagi tarkibi, ularning integratsiyalangan sarmoyalar tizimi elementlari bilan munosabatdoshligi birinchi oʻringa chiqaruvchi guruhlar uchun eng katta ahamiyatga egadir.

Innovatsion menejmentdagi konsepsiyalar va yondashishlarning tasnifi:

1) Menejmentni jarayon sifatida tushunish:

- Boshqaruvning egiluvchanligi, uzluksizligi va intensivligi.

2) Jarayonga taʼsir koʻrsatish omillarining tahlili:

- Boshqaruv vazifalarini ishlab chiqish va muvofiqlashtirish.

3) Boshqaruv jarayoni oʻzaro bogʻliq vazifalar tizimi sifatida:

- Boshqaruv usullarining oʻzaro bogʻliqligi va bir-birini taqozo qilishi.

4) Muvofiqlashtiruvchi, farmoyish beruvchi va nazorat qiluvchi vazifalarning

roli:

- Boshqaruv qarorlari samaradorligini oshirish.

Vertikal integratsiyalashgan firmalarni har tomonlama rivojlantirishga harakat qilishda vujudga keladigan murakkab muammolar nafaqat Rossiya iqtisodiyoti uchun

xosdir. Masalan, yaqinda “British Petroleum” o‘zining elektron sanoatdagi 4 mlrd dollardan ortiq summadagi aktivlarini — bir vaqtda xomashyo majmuasi va neft biznesidagi korxonalarini xarid qila turib — sotdi. Vertikal integratsiyalashgan korxonalarining ustuvorligi jahon iqtisodiyotida murakkab innovatsion jarayonlar va yuqori texnologik mahsulotni tatbiq etish uchun to‘siqlar yaratadi. Ammo vertikal integratsiyalashish imitatsion yangiliklar bilan bog‘liq kompaniyalarining samaradorligini oshirish va egiluvchanligini kuchaytirishga to‘siq bo‘la olmaydi.

Yirik amerikalik olim M. Porterning fikriga ko‘ra, konglomerat turidagi har tomonlama rivojlanish ko‘pgina Amerika sohalarining raqobatbardoshligiga zarar yetkazadi. Innovatsion faoliyat rivojlanishi va bozor rag‘batlarining kuchayishi tor ixtisoslashuv asosidagi har tomonlama rivojlanish alohida rol o‘ynaydi. Bu — firma ichidagi ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar rolining kuchayishi hamda operatsiyalarining butun majmuasini amalga oshirish bilan yaqindan bog‘liqdir.


Jahon va mamlakatimiz texnik-iqtisodiy rivojlanishining uzoq muddatli tendensiyalarini tadqiq qilish shuni ko‘rsatadiki, milliy iqtisodiyotlar tuzilmalarining o‘zgarishi va olg‘a siljishi hamda xalqaro mehnat taqsimoti bilan birga kechuvchi qayta ishlab chiqarish jarayonlarining dinamikasi ilmiy-texnik taraqqiyot va innovatsion o‘zgarishlar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq bo‘lib, iqtisodiyotning davriy tebranishlariga ham chambarchas bog‘liqdir. Xuddi innovatsion rivojlanishning davriy konsepsiyasi ilmiy-texnik taraqqiyotni bir tomondan ishlab chiqarishni takomillashtirishning muhim yo‘li sifatida tushunishga olib keladi.

Innovatsion faoliyatni iqtisodiy rivojlanishning muhim tendensiyasi sifatida ko‘rib chiqishda innovatsion jarayonlarning yangi tashkiliy shakllarini davlat, ilmiy, bozor va ijtimoiy institutlar tizimiga kiritish asosida integratsiyalash muammosi birinchi o‘ringa chiqadi. Innovatsion biznesning institutsional tuzilmalarga kiritilish darajasi oshishi nafaqat innovatsion faollikni pasaytirmaydi, balki, aksincha, innovatsion jarayonlarning o‘z-o‘zini tashkil qiluvchi tuzilmalarini takomillashtirish va vujudga keltirish qobiliyatini ham oshiradi.

AQSHda paydo bo‘lgan innovatsion jarayonning institutsional tuzilmalari bu ikki tendensiyaning birlashuviga yaqqol misol bo‘la oladi. Innovatsion jarayonning ham yirik sanoat kompaniyalari doirasida, ham ilmiy-texnik va innovatsion loyihalar asosida amalga oshirilayotgan an’anaviy tashkiliy modellari “bo‘linma-inkubatorlar”ning yopiq ilmiy-texnik muhitda kichik entrepreneur (ega, ijrochi) guruhlari bilan tijoratlashtirish bosqichiga “etkazish” tamoyiliga tayanadi. Yuqori kasbiy innovatsion bo‘linmalarining ixchamligi va tor ixtisoslashuviga qaramay, innovatsion loyiha moliyaviy muvaffaqiyat va foydani tez olish bilan qat’iy bog‘langan. Bunda ishga doir davr 5 yildan oshmasligi kerak.

Innovatsion tizimning murakkab, ko‘p bosqichli, ko‘p kompozitsiyali tuzilmasini ko‘rib chiqamiz. Kirish, chiqish va tashqi muhit — tizimning tashqi muhiti bo‘ladi. Tizimning kiruvchi parametrlari — bu moddiy, energetik, axborot va kognitiv (ilmiy bilimlar) oqimlaridir. Chiquvchi parametrlar esa yangi jarayonlar, mahsulotlar, xizmatlar, foyda, xodimlarning yangi bilimlari, ishlab chiqarishning o‘sishi, yangi

segmentlar va yangi bozorlarning o'zlashtirilishi, sotsial javobgarlik hamda xodimlarning qanoatlanganligidan iboratdir.



1-rasm. Innovatsion faoliyatdagi nazoratning ta'riflari va turlari¹

Qarorlar qabul qilinishi innovatsion menejmentda yakuniy tadbir hisoblanadi. Menejmentning ko'pgina vazifalari muhim ahamiyatga ega bo'lishiga qaramay, aynan qarorlar ehtimol bo'lgan ijobiy va salbiy natijalarga olib keladi. Qarorlar qabul qilish tadbirlari menejmentdan axborotlarning to'liqligi, menejerning yuqori darajadagi omilkorligi, xavfni va javobgarlikni qabul qilishga tayyorligini talab qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Innovatsion menejment iqtisodiy tizimlar ichki strukturasi qayta shakllantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, eksport salohiyatini mustahkamlash hamda raqobatbardoshlikni ta'minlashda asosiy omil sifatida e'tirof etiladi. Ushbu holatni isbotlovchi ko'plab empirik dalillar mavjud. Masalan, Jahon Iqtisodiy Forumi (WEF)ning 2023-yilgi "Global raqobatbardoshlik indeksi" ma'lumotlariga ko'ra, yuqori innovatsion salohiyatga ega davlatlarda iqtisodiy tiklanish sur'atlari postpandemiya davrida o'rtacha 1,7 baravar tez bo'lgan.

O'zbekiston misolida olaylik: oxirgi besh yillikda innovatsion boshqaruv tamoyillarining joriy etilishi milliy iqtisodiyotda tub burilishlarga sabab bo'ldi. Xususan, 2018–2023-yillar oralig'ida:

Ilm-fan va innovatsiyalar rivojiga ajratilgan byudjet mablag'lari 5 baravarga oshdi (2023-yilda 3,2 trillion so'mga yetdi).

Innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalar soni 2,4 baravarga ko'paydi.

Yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushi sanoat ishlab chiqarishida 7,1 foizdan 13,6 foizgacha o'sdi.

¹ Muallif ishlanmasi

Shu bilan birga, O‘zbekiston innovatsion infratuzilmani rivojlantirish borasida ham jiddiy yutuqlarga erishmoqda. Masalan, “INNO” texnoparki, “Yashnobod” innovatsiya markazi va boshqa hududiy texnologik inkubatorlar faoliyati natijasida 2022–2024-yillarda 600 dan ortiq startaplar tijoratlashuv bosqichiga yetib keldi. Bu esa innovatsion menejment samaradorligini amaliy ko‘rsatkichlar bilan isbotlaydi.

Innovatsion menejmentning iqtisodiy barqarorlikka ta’siri quyidagi strategik yo‘nalishlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi:

Texnologik modernizatsiya orqali resurslardan samarali foydalanish – bu energiya samaradorligi, chiqindilarni kamaytirish va ekologik barqarorlikka bevosita ta’sir qiladi. Masalan, Germaniyada "Industry 4.0" konsepsiyasi joriy etilgach, ishlab chiqarish tannarxi o‘rtacha 18 % ga kamaydi.

Innovatsiyalar orqali yangi bozorlarni zabt etish va eksportni diversifikatsiyalash – Janubiy Koreyada Samsung va Hyundai kompaniyalarining uzoq muddatli innovatsion menejment strategiyasi mamlakat YAIMining 35 % dan ortig‘ini ushbu kompaniyalar hissasiga to‘g‘ri kelishiga sabab bo‘lgan.

Mehnat unumdorligini oshirish va intellektual kapitaldan foydalanish – Jahon bankining ma’lumotiga ko‘ra, innovatsiyaga yo‘naltirilgan mamlakatlarda mehnat unumdorligi o‘rtacha 2,3 baravar yuqori bo‘ladi.


Raqamli innovatsiyalar ayniqsa pandemiyadan keyingi davrda barqarorlikni saqlab qolishda hal qiluvchi rol o‘ynadi. Masalan, O‘zbekiston misolida olib qaralganda, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategik dasturi doirasida amalga oshirilayotgan transformatsion islohotlar nafaqat texnik modernizatsiyani, balki boshqaruvning institutsional sifati oshishini ham ta’minlamoqda. Jumladan, elektron hukumat tizimining kengayishi orqali 300 dan ortiq davlat xizmati avtomatlashtirildi, aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun byurokratik to‘siqlar kamaytirildi. Bu esa ma’muriy xarajatlarning sezilarli darajada qisqarishiga olib keldi: Davlat xizmatlari agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2020–2023-yillar davomida raqamli xizmatlar orqali 1,2 trillion so‘mdan ortiq mablag‘ tejalgan.

Shuningdek, sun’iy intellekt va Big data texnologiyalarining joriy etilishi moliyaviy intizom, soliq bazasining kengayishi hamda davlat xarajatlarining aniq rejalashtirilishini ta’minlab, korrupsiya xavfini kamaytirishga xizmat qildi. Masalan, “Open Budget” platformasi orqali byudjet shakllanishi va xarajatlar ustidan ochiq monitoring imkoniyati fuqarolik nazorati darajasini oshirdi va davlat mablag‘larining maqsadli sarflanishini kafolatladi.

Bundan tashqari, raqamli innovatsiyalar iqtisodiy faoliyatning ko‘plab segmentlarida qo‘shilgan qiymatni oshirishga xizmat qildi. Masalan, agrotexnologiyalar, raqamli bank xizmatlari, sanoat robototexnikasi va logistika tizimlaridagi raqamlashtirish orqali mahsuldorlik ko‘rsatkichlari o‘sdi, tranzaksion

xarajatlar kamaydi. Bu esa umumiy makroiqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

2-rasm. O'zbekistonda innovatsion menejment ko'rsatkichlari¹



Yuqoridagi diagramma 2018–2023-yillar oralig'ida O'zbekistonda innovatsion menejmentning asosiy ko'rsatkichlaridagi o'sishni tahlil etadi. Grafikda uchta asosiy indikator aks ettirilgan:

- Davlat byudjetidan innovatsiyalarga ajratilgan mablag'lar (trln so'm)
- Yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushi (%)
- Innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalar soni

1. Byudjet ajratmalarining o'sishi. 2018-yilda innovatsiyalarga ajratilgan mablag'lar atigi 0,65 trillion so'mni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilda 3,2 trillion so'mga yetdi. Ya'ni, olti yilda bu raqam qariyb 5 baravarga o'sgan. Bu esa davlat siyosatida innovatsion rivojlanishga ustuvor e'tibor qaratilayotganini ko'rsatadi. Ajratilgan mablag'lar miqdorining ortishi, avvalo, ilmiy-tadqiqot institutlari, texnoparklar va startap loyihalarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan.

2. Yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushi. 2018-yilda sanoat mahsulotlaridagi yuqori texnologiyalarning ulushi 7,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu raqam 13,6 % ga yetgan. Bu deyarli 2 barobar o'sishni anglatadi. Bunday dinamik o'sish innovatsion menejment strategiyalarining ishlab chiqarishga integratsiyalashuvini, xususan avtomatlashtirish, raqamli tizimlar va texnologik modernizatsiya jarayonlarining samaradorligini ko'rsatadi.

¹ Muallif ishlanmasi

3. Innovatsion firmalar soni. Innovatsion faoliyat yuritayotgan korxonalar soni 2018-yildagi 120 tadan 2023-yilda 590 taga yetgan. Bu esa oʻrtacha har yili 30–35 % oʻsish kuzatilganini anglatadi. Yangi texnologiyalar asosida ishlaydigan firmalarning koʻpayishi mamlakatda innovatsion ekotizim shakllanayotganining amaliy ifodasidir. Texnoparklar, startap inkubatorlar va xususiy sektorni ragʻbatlantirish boʻyicha davlat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar bunday ijobiy oʻzgarishlarga turtki boʻlgan.

Bundan koʻrinib turibdiki, Oʻzbekistonning iqtisodiy barqarorlik strategiyasida innovatsion menejment muhim poydevorga aylanmoqda. Innovatsiyalarga ajratilayotgan mablagʻlar, texnologik mahsulotlar ulushi va faol korxonalar sonidagi barqaror oʻsish iqtisodiyotda transformatsion jarayonlar tobora kuchayayotganidan dalolat beradi. Bu esa uzoq muddatda makroiqtisodiy barqarorlik, raqobatbardoshlik va eksport salohiyatini oshirishda muhim omil boʻlib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Innovatsion boshqaruvning iqtisodiy barqarorlikni taʼminlashdagi roli zamonaviy global muammolar, texnologik inqiloblar va raqobatning kuchayib borayotgan sharoitida yanada dolzarb tus olmoqda. Tahlillar shuni koʻrsatadiki, innovatsion yondashuvlar nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki resurslardan oqilona foydalanish, yangi ish oʻrinlari yaratish va ekologik barqarorlikni taʼminlashga ham xizmat qiladi. Oʻzbekistonning 2030-yilgacha moʻljallangan “Yashil iqtisodiyot strategiyasi”, “Yashil makon” kabi milliy tashabbuslar va “Raqamli Oʻzbekiston – 2030” dasturi innovatsion boshqaruv konsepsiyasining davlat siyosatida alohida oʻrin tutayotganidan dalolat beradi. Ayniqsa, innovatsion boshqaruv vositalarining iqtisodiy oʻsish, eksport salohiyatining ortishi, energetika samaradorligi va texnologik suverenitetni taʼminlashdagi oʻrni nihoyatda muhimdir. Shunday ekan, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda innovatsion boshqaruvning kompleks, tizimli va barqaror modelini shakllantirish zarur boʻlib, bu yoʻnalishda ilmiy tadqiqotlar, xorijiy tajribaning oʻzlashtirilishi hamda xususiy sektor bilan davlat hamkorligi muhim omil sifatida namoyon boʻlmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Ghosh, S. & Nanda, R. (2019). Innovation and Economic Stability: A Global Perspective. *Journal of Economic Dynamics and Control*, 103, 142–158.
2. UNDP Uzbekistan. (2023). Green Economy Transition in Uzbekistan: Policy Progress and Future Pathways. UNDP Uzbekistan Country Report.
3. Schumpeter, J. A. (1934). *The Theory of Economic Development*. Harvard University Press.
4. Lundvall, B.-Å. (1992). *National Systems of Innovation: Towards a Theory of Innovation and Interactive Learning*. London: Pinter Publishers.
5. World Bank. (2022). *Uzbekistan: Country Climate and Development Report (CCDR) – Pathways to a Green and Resilient Economy*. Washington, DC: World Bank Group.

6. Фатхутдинов Р.А. (2007). Инновационный менеджмент: классификация, структура и отличительные черты инновационных организаций, экономические законы организации, научные подходы и принципы и др. Учебник для вузов. 5-е изд., испр. и доп. – СПб.: Питер.

7. Ismatov, R., & Ahmedov, O. (2016). Innovatsion menejment.

8. Freeman, C., & Soete, L. (1997). The Economics of Industrial Innovation (3rd ed.). Cambridge, MA: MIT Press. Ghosh, S. & Nanda, R. (2019). Innovation and Economic Stability: A Global Perspective. Journal of Economic Dynamics and Control, 103, 142–158.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, may, 5-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710. ГОСТ 7.56-2002** " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**